

O‘QUVCHILAR XULQIDAGI IJTIMOY OG‘ISHLAR

Navoiy viloyat Uchquduq tumani 1-maktab ingliz tili o‘qituvchisi

Abdullayev Alisher Farxodovich

Navoiy davlat pedagogika instituti informatika kafedrasida o‘qituvchisi

Hamroyev Nozimjon Normurod o‘g‘li

O‘smirlik davridagi o‘quvchilarning xulq-atvoridagi og‘ishlari bu ijtimoiy hodisa sifatida uni ilmiy o‘rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. O‘smirlik davridagi o‘quvchilarning xulq-atvoridagi holatlar, agressiya, qo‘rqishga moillik hamda deviant xulq-atvoriga ega bo‘lgan o‘smirlar sonining ko‘payishi, antisosyal, ziddiyatli va tajovuzkor xatti-harakatlar, buzg‘unchilik harakatlari, o‘rganishga qiziqishning yo‘qligi vahokazoalar shular jumlasidandir.

O‘smirlik davridagi o‘quvchilarning xulq-atvoridagi Og‘ish muammolari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, bu borada quyidagi olimlarning ishlarida ular O‘smirlik davridagi o‘quvchilarning xulq-atvoridagi Og‘ishlarni quyidagicha ta’riflaydilar. Jumladan E. И. Холостова O‘smirlik davridagi xulq-atvorni jamiyat yoki ijtimoiy guruhning qadriyatlari, me’yorlari, munosabati yomonlashuvchi xatti-harakatlar sifatida tavsiflaydi. В. В. Ковалев deviant xulq-atvorni ma’lum bir jamiyatning axloqiy me’yorlaridan chetga chiqadigan xatti-harakatlar deb hisoblaydi. Я. И. Гишинский O‘smirlik davridagi o‘quvchilarning xulq-atvoridagi og‘ishlarni muayyan jamiyatda rasman o‘rnatilgan yoki amalda o‘rnatilgan me’yorlarga to‘g‘ri kelmaydigan inson harakati deb tushunadi.

Shunday qilib, turli xil ta’riflar va xususiyatlar bilan, O‘smirlik davridagi o‘quvchilarning xulq-atvoridagi og‘ishlarni jamiyatda qabul qilingan me’yor va qoidalardan tashqariga chiqadigan xatti-harakatlar sifatida talqin qilinishi mumkin.

O‘smirlik davridagi o‘quvchilarning xulq-atvorining mohiyatini tushunishda bolaning rivojlanishida xatti-harakatlar orqali namoyon bo‘ladigan buzilish sodir bo‘lishi asosiy omil hisoblanadi. Rivojlanish - bu tabiiy o‘zgarish jarayoni, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish, yanada mukammalroq, eski sifat holatidan yangi holatga, oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga o‘tish kabidir [1].

O‘smirlik inson rivojlanishining inqiroz davri sifatida, hatto odatdagidek, ijtimoiylashuv jarayonini murakkablashtiradigan bir qator holatlar bilan tavsiflanadi. Shuning uchun u xulq-atvorning qo‘shimcha omili sifatida ilgari suriladi. Turli tadqiqotchilar inson rivojlanishining o‘smirlik davrining yosh



chegaralarini turlicha ta’riflaydilar. Т. Д. Молодцова o’smirlik davri 10-14 yosh bilan chegaralanadi deb hisoblaydi [2].

O’smirlarning xulq-atvori ijtimoiy normalar quyidagi xususiyatlar bilan belgilanadi.

-Ijtimoiy normalar - bu jamiyat talablarining miqdoriy va sifat xususiyatlari;

-odamlar va ijtimoiy guruhlarning jarayonlari va turmush sharoitlariga qo’yiladigan talab xususiyatlari;

-guruhlar va shaxslar o’rtasidagi adolatli munosabatlar.

Ushbu xususiyatlar har bir shaxs yoki odamlar jamoasining ijtimoiy xulq-atvorini yo’naltirish vositasi bo’lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Мардахаев Л. В. Словарь по социальной педагогике. М., 2002. С. 237.
2. Айхорн А. Трудный подросток. М., 2001. С. 30.
3. Молодежь в XXI веке: Социальное участие. Тамбов, 2000. С. 150.
4. Социальная работа / под ред. В. И. Курбатова. Ростов-н/ Д.; М., 2000. С. 382. ., 2000. С. 382.

